

YANGICHA DUNYOQARASH JANR SHAKLLANISHI OMILI SIFATIDA

Lolayev Shuxrat

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası
o'qituvchisi

Qayumova Mohira

O'zbek filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7390344>

Annotatsiya. Mazkur maqola milliy uyg'onish davri mohiyati mazmuni, jadid adabiyoti davri umumiy g'oyasi, ijtimoiy faollik muhiti hamda roman janrining shakllanish asosi xususidagi omillar va dastlabki tajribalar haqida bo'lib, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi namunasida roman janri shakllanishiga asos bo'lgan milliy ifoda haqidadir. O'zbek adabiyotida roman janri genezesi masalasidagi qarashlar va roman janriga dastlabki urinish sifatida baholanga "Yangi saodat" romanining tahlili xususida.

Kalit so'zlar: "Adabiyot qoidalari", milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, roman, "Yangi saodat".

НОВОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ КАК ФАКТОР ЖАНРООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье речь идет о сущности периода национального возрождения, общем представлении о периоде современной литературы, среде общественной деятельности, факторах и исходных переживаниях, лежащих в основе формирования жанра романа. о национальном самовыражении. О взглядах на генезис жанра романа в узбекской литературе и анализе романа «Янги саodat», который считается первой пробой жанра романа.

Ключевые слова: «Литературные правила», национальное возрождение, современная литература, роман, «Новое счастье».

A NEW WORLDVIEW AS A FACTOR OF GENRE FORMATION

Abstract. This article is about the essence of the national renaissance period, the general idea of the period of modern literature, the environment of social activity and the factors and initial experiences regarding the basis of the formation of the novel genre, and the national expression that is the basis for the formation of the novel genre in the example of the work of Hamza Hakimzoda Niyazi. is about Regarding the views on the genesis of the novel genre in Uzbek literature and the analysis of the novel "Yangi Saodat", which is considered as the first attempt at the novel genre.

Key words: "Literary rules", national revival, modern literature, novel, "New Happiness".

KIRISH

Adabiyot tushunchasini izohlash uchun Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da eng avval san'at, go'zal san'atlar tavsifini beradi hamda ularni "Musiqiy, rasm, haykalchilik, me'morlik, o'yin(tans), adabiyot" – deb ta'rif etgan holda ikki turkumga ajratadi. Birinchi turkumga Adabiyot, musiqa, o'yin(tans) Ikkinchi turkumga esa rasm, haykalchilik, me'morlik deb keltiradi. Ifoda bayonini izohlagan holda "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu tuyg'ularni yaratmoqdir"¹.

¹ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar 4-jild. T.: Ma'naviyat. 2006. 13-bet

Jadid adabiyoti davrida adabiyot istilohi mohiyatini sodda va tushunarli, aniq qilib ifoda qilar ekan, o'zbek adabiyotida janriy yangilanishlar, mavzu ifoda uslubi hamda shakl va mazmun modernizatsiyasi bo'lishi, albatta, tabiiy kutulgan hodisa edi. Vaholangki jadid adabiyoti davrida janriy revolyutsiya va yangilanish hamda shakllanish jarayonlari ham kuzatildi. Shu o'rinda jadid adabiyotida janriy yangilanishlar sifatidagi tahlilimizni izohlash uchun quyidagi iqtiboslarni keltirib o'tamiz,

- "Janr adabiyot taraqqiyotining har bir yangi bosqichi va shu janrga mansub har bir asarda qaytadan tug'iladi, yangilanadi"². Zero janr adabiyot taraqqiyoti hamda uning yangilanishi bilan qaytadan tug'ilar ekan, fikrimizni yorqinroq asoslash uchun yana Baxtin iborasidan misol keltiramiz.
- "Janr hozir bilan yashaydi, biroq hamma vaqt o'zining o'tmishi, ibtidosini yodda tutadi. Janr-ijodiy xotiraning adabiyot taraqqiyoti jarayonidagi vakilidir"³.

Biz manbalarga tayangan holda "Jadid adabiyoti" mohiyatini yangilanishlarini ochib berishga asoslanar ekanmiz, filologiya fanlari doktori Zaynobidin Abdirashidovning "Turkiston jadidlari va Gasprinskiy" (so'z boshi)sida keltirilgan "Mujaddid" atamasini keltiramiz hamda bu nomga sazovor bo'lgan Ismoilbek Gasprinskiy faoliyatini xotirlab o'tamiz.

METOD VA METODOLOGIYA

Ismoilbek Gasprinskiy sayi harakatlari natijasida barcha musulmon bo'lgan Turkiston o'lkasida, avvalo, til va din birligi millat tushunchalari umumiy mushtaraklikni hosil qildi, hamda bu umumiy bir g'oyani, maqsadni shakllantirdi. O'zbek jadid adabiyoti davrida umumiy bir g'oya, maqsad sari intilish adabiyotimizda milliy KOLORIDni shakllantirdi. Shu asosda yozma adabiyotimizda dramatik tur qaror topishi hamda rivojlanishi, publitsistik, lirik, epik janrlar shakllanishi va yangilanish revolyutsiyasi muhim hodisa sifatida jadid adabiyoti mazmun mundarijasini hosil qildi. Quyidagi maqolamizda biz epik tur rivoji - roman janri shakllanish genezisi haqidagi badiiy ifoda garmoniyasini keltiradigan bo'lsak, avvalambor, Epik asarlarni janrlarga ajratish nazariyasi masalasida adabiyotshunoslikda hali hanuz yakdil to'xtamga kelingan emasligini eslatib o'tgan holda, bir qator xususiyatlarni e'tiborga olish zarurligini hamda buning ifodaviy bayonini keltiramiz. Eposni janrlarga ajratishda, odatda, eng avval epik asarlarda hayot (voqelik) ning badiiy qamrov ko'lamini turlicha bo'lishidan kelib chiqiladi. Masalan, muayyan epik asar hayotdan (yoki qahramon hayotidan) birgina epizodni (hikoya), qahramon hayotidan butun bir etapni (qissa) yoxud qahramon hayotining katta bir davrni (roman) qalamga oladi. Shunga ko'ra, adabiyotshunoslikda katta, o'rta va kichik epik shakl (janr)lar ajratiladi

Jadid adabiyotida davrida roman janri shakllanishi tom ma'nodagi yangilanish kashfiyoti bo'ldi. Roman haqida so'z borganda, uning nazariyasi, odatda, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi, murakkab va ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi. Roman janri tasvir ko'lamining kengligi, xalq hayotining muayyan davrini har tomonlama tahlil eta olish imkoniyatiga egaligi, murakkab xarakterlar, insoniy taqdirlarni ifoda etishga qodirligi jihatdan har qanday davr va millat adabiyotining qiyofasini belgilaydi.

² Бахтин.М.М Собрание сочинений в 7 т.Т.6.-М., 2002.-С.120

³ Бахтин.М.М Собрание сочинений в 7 т.Т.6.-М., 2002.-С.120

O'zbek adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi A.Qodiriy, Hamza, Mirmuhsin Shermuhammedov nomlari bilan bog'liq deb qaraymiz roman janri nazariyasiga oid ilk nazariy mulohazalar esa A.Sadiyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" va Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarlarida uchramiz. Ayniqsa, S.Xusayn "O'tkan kunlar" ni tahlil etish jarayonida janr sifatida romanning boshqa adabiy janrlardan farqini tushuntirishga harakat qiladi. Miyonbuzruk Solihov esa o'zbek adabiyotida romanchilik tajribasi-yo'qligini ta'kidlab, "O'tkan kunlar"ni original asar deb hisoblaydi. Biz o'zbek adabiyotidagi roman janri shakllanish genezisi hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziyning romanlarini eng boshdan tahlil qilamiz.

TADQIQOT NATIJASI

Ma'lumki Hamza Hakimzoda Niyoziyning ilk romani "Yangi saodat" emas balki 1908-yilda yozilgan "Haqiqat kimda" deb nomlangan romani edi. bu roman bizgacha saqlanib qolmaganligi sababli tahlilini muallifning tarjimai holi haqidagi izohi bilan izohlaymiz: "Eski podshohlar yurmushidan bir "Haqiqat kimda" ismli havosiz, operali bir roman yozgan edim, o'g'irlatdim, bugunki, topilmaydir. Bundan buyog'i she'rlarim milliy va inqilobiy tuslarin ola boshladi"⁴. Agar bir muallifning avtobiografiyasidan olingan ushbu ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, bu roman, avvalombor, tarixiy mavzuda – eski shohlar haqida ekanligi hamda bu asar shunchaki havosiz bir tajriba sifatidagi asar ekanligini anglaymiz va shu o'rinda adibning ijodi ham bu asar yo'qolgandan keyingi she'rlari milliy va inqilobiy tus ola boshlaganini bilib olishimiz mumkin. Bu esa bizni adibning keying asari "Yangi saodat" romanini tahlil qilish ishimizni qulaylashtiradi, sababiki bu asar 1914-yilda yozilgan vaholangki ijodi milliy va inqilobiy tus olishidagi taraqqiy etgan vaqtlariga to'g'ri keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ham bu roman "Yangi saodat yohud milliy roman" deb nomlandi.

"Yangi saodat yohud milliy roman". Hamzaning "Oq gullar" to'plamiga ilova qilingan e'lonida uning ikkita "Milliy roman" yozganligi to'g'risida ma'lumot bor. Bularning biri – "Yangi saodat" 1914-yil yozilgan bo'lib, 1915-yil bosilib chiqqan. Ikkinchisi – "Turmush achchig'i" asari esa 1916-yilda, "Oq gul" chop etilgan vaqtda nashrda bo'lgan. Uning keyingi taqdiri nomalum.

"Yangi saodat" – Hamzaning nasrdagi bizga ma'lum eng dastlabki urinishi bo'lishiga qaramay, unda tasvir san'ati, qahramonlar obrazining yorqinligi, g'oyaning izchil olg'a surilganligi va til xususiyatlari muallifning katta "nasriy" istedodga ega bo'lganidan darak beradi.

Olimjon – asarning bosh qahramoni. Uning hayot yo'li turmush mashaqqatlarini yengib, nurli maqsad sari shahdam borishi va "g'arib millat uchun kerakli" kishi bo'lib yetishishi jadid adabiyoti qahramonlari uchun ayniqsa xos bo'lib, Hamza ana shu qahramon taqdirini tasvirlash bilan jaholat botqog'ida yashayotgan xalqiga ibratli bir siymoni, baxt-saodatga, erishish yo'lini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Hamzaning "Yangi saodat"asari ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, unda kambag'al yigit Olimjonning ilm tufayli oilaviy baxt-saodatga erishganligi mahorat bilan tasvirlangan.Olimjon faqirlikdanmi yoki oqila onasi Maryamning yaxshi tarbiyalari bilan o'sgandanmi ko'chaga chiqib yurganda, o'zidan kichikroq bolalarga qo'lidan kelgancha marhamat etib, o'zidan ulug' kishilarga odob va axloq ila salom qilib yurar, yomon bolalarga qo'shilmay doim masjidu madrasa kabi diniy va milliy ibodatxonalarda yurar edi. Otasi Abduqahhorni tanigan kishilarni xayratlarga qoldirib, har birlarining muhabbatlarini

⁴ Laziz Qayumov. Hamza. Yosh gvardin. Tosh.: - 1973. 7-bet.

o'ziga bog'lar va zo'r natijalardan umid kutdirar edi. Onasi Maryam eski maktablarda o'qigan bo'lsa ham aqlu-fikrining kamolga yetganligidan har qanday qiyinchiliklarga qaramay sabr bilan farzandlarini tarbiyalashga ularni o'qitib ilm-ma'rifat orqasidan yo'qolgan davlatiga yetishmoqlikni niyat qilgan edi. Olimjonning Ahmadjon ismli bir o'rto'g'i bo'lib, u usuli jadid maktabida o'qir edi. Bir kuni u Olimjonni maktabga boshlab boradi. U ilk kundanoq o'zining odobi, ilmga chanqoqligi bilan jadid muallimining mehrini qozonadi va maktabda o'qiy boshlaydi. Keyinchalik singlisi Xadichani ham o'qitadi. Onasi niyat qilgan baxtli kunlarga ilm-ma'rifat orqali erishdi. Agarda G'oziboy yoxud Ruzvon boshda Abduqahhorni ham Olimjon kabi tarbiya qilib, o'qitib olim qilgan bo'lsalar edi, bunday ko'p dunyolarni yomon yo'llarga sarf qilib, hatto o'z shahrida yurgudek holi qolmay, musofirlikda yegani ovqat, qilgani kasb topolmay g'urbatda sarson bo'lib qolmas edi. O'qigan kishi olim bo'lmay, u saodatga yetmay qolmas, o'qimagan kishi, albatta, razolatdan boshqa hech narsa hosil qilolmas. Saodat-ilmida, razolat-jaxlda, har bir ish insonning o'z harakatiga bog'liqdir. Xolbuki, bug'doy ekan-bug'doy, arpa ekan-arpa olur. Uning otasi johil bir savdogar bo'lganligi sababli, "Saodat va chin turmushlari uchun eng birinchi darajada farzu ayn bo'lgan ilm, ma'rifat" dan mahrum bo'lib qolgan edi. Hamzaning talqinicha, u hayotning ana shu qusuri tufayli *"kecha-kunduz safohat(nodon) va qabohatlarga qadam qo'ya"* boshlaydi va natijada qimorga boy beradi, *"oxur yotadurgan joyi go'lox"*, ovqat uchun topadurg'on aqchasi esa qimorbozlardan cho'tal bo'lib qoladi. Olti yoshli Olimjon va uning uch yoshli Xadicha taqdiri oqila onaning qo'liga o'tadi. Maryam qanchalik qiynalmasin, yolg'iz o'zi amal-taqal qilib o'stiradi, Olimjonni esa jadid maktabiga beradi. Xulq-odati va iqtidori bilan muallim mehrini qozongan Olimjon – *"Millat gulshaniga yangi qo'ngan andalib"* – tez orada obro'-e'tibor qozonadi. Dastlab muallimga yordamchi bo'lib, maktabda saboq beradi, so'ng Abdirahmon ismli savdogarga miro bo'lib uni yolg'iz qizi, *"ko'zining nuri"* Nazokatxonga uylanadi. Shu asnoda Olimjon adashgan otasidan xabar topib, Toshkentda yamoqchilik orqasidan tirikchilik o'tkazib yurgan Abduqahhorni oila bag'riga olib keladi. Abdurahmon boy olamdan o'tgandan keyin esa Olimjon undan qolgan boyliklarga ega bo'lib, *"mashaqqatsiz davlat va chin maishat"* ga yetishadi.

MUHOKAMA

Asar negizida ikki xil insin – o'qigan va o'qimagan insonning taqdiri yotadi. Hamza bu ikki qahramonni bir oiladan topadi. O'qimagan inson – Abduqahhor o'qigan inson – o'z farzandi Olimjon tufayli tubanlikdan qutqarilib, "do'st – dushmani ajratib, insof va diyonatli, shavqat va marhamatli" kishiga aylanadi.

"Shohlar bir kun gado bo'lur, bizga o'xshab. Gadolar bir yana bir kun shoh bo'lib qolur, bolajonlarim", - deydi Maryam oilasi parokanda bo'lgan kezlarda. Uning so'zlariga farishta omin degan ekan, o'g'li Olimjon uning ko'z o'ngida ilm va ma'rifati tufayli gadodan shohga aylanadi.

Yozuvchi asar g'oyasini faqat Olimjon taqdirini kuzatish orqali ochmaydi, uning kitobxon qalbiga yetib borishi uchun boshqa imkoniyatlardan ham foydalanadi. Bu imkoniyatlardan biri sentimenttal tasvir usulidir. Yozuvchi Olimjon onasi Maryam, buvisi Ruzvon va boshq abrazilarni, ular o'rtasidagi aloqani tasvirlashda kitobxonning his tuyg'usiga ortiq darajada ta'sir o'tkazishga urinadi. Umuman, jadid adabiyotida sentimentalizm "Yangi saodat" dagidek balqib turgan boshqa asarni topish qiyin. Qismat shu tufayli bo'lsa kerak, "Al-isloh" jurnali "Yangi saodat" tog'risida so'z yuritib, "Xalqni o'quv va yozuv tarafig'a targ'ib qilmoq uchun hozircha Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli roman nashr bo'linmami", - deb yozadi. Asarda qo'llanilgan

ikkinchi tasvir imkoniyati lirik chekinishdir. Yozuvchi o'z fikr-maqсадini voqealar oqimiga lirik chekinish tarzida olib kirishga uringan. Mana bu so'zlarga e'tibor bering. *"O'qigan odamlar garchan yosh bo'lsalar ham mudarris, rastalarda katta do'kondor, yaxshi o'rinlarga mirzo, yaxshi kiyimlar, ozoda salalar boshida, har joyda izzatlik va hurmatlik... Ammo o'qimagan odamlar naqadar boy bo'lsa ham rahmsiz va muruvvatsiz va insofsiz bo'lib bizdek fikrlarni xo'rlab, azob beruv, yomon haqoratlar bilan har kimni dilini og'ritib yururlar..."*

Hamza o'z asarida mana shu ikki toifaga mansub kishilarni ko'rsatar ekan, Olimjon tufayli Abduqahhorning ko'zi ochilganidek, boshqa zamondoshlarning ham Olimjon izidan borishlarini istaydi. Uning ushbu asari yozishdan murodi ham xuddi shunday edi. Ilm-ma'rifat Hamza talqinida *"Hayotimiz dunyosining haqiqiy xurshidi va mohtobini"* bo'lsa, Ilmsizlik *"jaholat va g'aflat zindonidir"*. Hamza aksar zamondoshlarining ana shunday zindonda yashayotganining sababini ikki narsada ko'rgan. Birinchisi o'quv ishlarining o'g'irlashgani bo'lsa ikkinchisi johil ota-bobolarning *"Xudo bersa bo'ladi"*, degan *"Asossiz so'z va fasod e'tiqodlaridir"*. *"Xudo zolim emas, -deydi yozuvchi, - birovga berub, birovga bermay qo'ymas"*. *"Xudoyi toborak taola saodat – ilmida, razolat – jahlda, har bir ish bandaning o'z harakatiga muvofiq, deb o'z kalomida takror xabar bergani bor"* Hamza o'z g'oya maqsadlariga yakun yasab, yana bir hadis keltiradi. Bu hadisda aytilishicha, *"Dunyo yuzidagi millatlarga ustin bo'la olmasak ham, alarning oyoq ostlarida qolmaslik darajasinda chora axtarmoq lozim"*. Hamza ana shunday chorani ilm-ma'rifatli bo'lishda ko'radi. "Yangi saodat" ning g'oyaviy yo'nalishi esa shu fikrni ochishga qaratildi.

Cho'lponning "Adabiyot nadir" maqolasi orqali Adabiyot istilohini va vazifasini *"Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan so'ngan qaralgan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermoq uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurg'on o'tkir yurak qirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artib tozalaydurg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdur"* degan qarashlarini keltirar ekan Hamza ham ijodining barcha namunalarida asosiy masala sifatida ilm-ma'rifatni, adabiyotni biladi. Ijtimoiy voqelikni reallashtira olgan holda adabiyotning mazmun mundarijasini "milliy ruhiyat" sifatida singdira oldi. Shu sababdan ham "Yangi soadat" asari janrini milliy roman deb nomladi. Hamza romanlarini tadqiq etish orqali quyidagilardan iborat degan xulosaga kelish mumkin:

- 1). «Yangi saodat yoxud milliy roman». 1908-1910 yillarda qo'lyozmasi tayyorlanib, muallif tomonidan 1914 yilda qayta tahrir qilingach, 1915 yil 5 martda «Madoro» kutubxonasi noshirligida bosilib chiqqan. Keyinchalik Hamza besh tomlik "To'la asarlar to'plami"ning. Ikkinchi tom (1988) iga kiritilgan.
- 2). «Haqiqat kimda?». Bu asarning 1908 yilda yozilganligi fakti ma'lum.
- 3) "Turmush achchig'i" (Milliy roman) 1916 yilda nashr qilinganligi haqida ma'lumot bor.
- 4). «Uchrashuv» («To'rt ishq») 1916 yilda yozilgan va bizgacha birinchi qismi yetib kelgan.⁵

XULOSA

Hamza Hakimzoda Niyoziyning romanlarini tadqiq etish orqali quyidagi romanlarini keltirdik va ularning mano mundarijasini ochishga harakat qildik. Bu tadqiq o'zbek adabiyotida roman genezisi va nazariy asosini ochishga xizmat qiladi. Germaniyalik tadqiqotchi Maurisi Shroder shunday degan edi: "Roman tajribasizlikdan tajribaga, jaholat sarobidan hayotning

⁵ Islomjon Yoqubov. "O'zbek romani tadriji". T.: Fan va texnologiya. 2006. 7-bet.

haqiqatlari toman borish mashaqqatlarini qalamga oladi”,-degan edilar. Dekam, Hamza romanlari roman janri shakllanishi uchun tajriba vazifasini o‘tadi.

REFERENCES

1. Laziz Qayumov. “Zamondoshlar: Adabiy portret va ilmiy – lavhalar voqeyiy hikoya va esdaliklar” – T.: 1985.
2. H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. Besh jildlik, T.: Fan – 1990
3. M.Rahmonov. Hamza Hakimzoda Niyoziy va o‘zbek teatri. T., 1959
4. A.S.Cho‘lpon. “O‘zbek adabiy tanqidi” antalogiyasi. “Adabiyot nadir”. T.: Turon-iqbol - 2011.
5. I.Yoqubov. O‘zbek romani tadriji. T.: Fan va texnologiya – 2006.